



O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA INTERNET ATAMASINING TERMINOLOGIK TAHLILI

Ashirboyev Axrorjon Tirkash o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki

ishlar vazirligi Akademiyasi

Kiberhuquq kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: ashirboyevaxrorjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19330756>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 25-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 30-mart 2026 yil

KEYWORDS

Internet jahon axborot tarmog'i, Internet tarmog'i, Butunjahon Internet tarmog'i, qonunchilik terminologiyasi, terminologik nomuvofiqlik, huquqiy ta'rif, qonunchilik texnikasi, raqamli huquq, axborot xavfsizligi, konstitutsiyaviy norma, terminologik izchillik..

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida "Internet jahon axborot tarmog'i", "Internet tarmog'i", "Butunjahon Internet tarmog'i" kabi turli atamalarning bir xil huquqiy munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan terminologik nomuvofiqlik muammosi tahlil qilingan; Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat-protsessual kodeks, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Prezident farmonlari kabi normativ-huquqiy hujjatlardagi statistik ma'lumotlar asosida terminologik nomuvofiqlik holatlari aniqlangan; Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasining shu sohadagi tajribasi o'rganilgan hamda Konstitutsiyada mustahkamlangan "Internet jahon axborot tarmog'i" atamasini butun qonunchilik tizimida yagona va asosiy atama sifatida unifikatsiya qilish, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunga aniq huquqiy ta'rif kiritish, raqamli texnologiyalar sohasidagi atamalarning rasmiy lug'atini ishlab chiqish hamda monitoring mexanizmini joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va Internet tarmog'idan foydalanishning kengayib borishi zamonaviy axborot jamiyatini shakllantirib, qonunchilikda yangi huquqiy munosabatlarni tartibga solish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bu esa qonunchilik terminologiyasini aniq, izchil va yagona tizim asosida shakllantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning huquqiylik va axborot xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning raqamli huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu ustuvor vazifani amalga oshirishda qonunchilik terminologiyasining yagona tizimga keltirilganligi, turli normativ-huquqiy hujjatlarda bir xil tushunchalarning izchil qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida aynan Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi haqida so'z boradi [1]. Ushbu konstitutsiyaviy norma Internet tarmog'idan foydalanish huquqini ta'minlashning davlat tomonidan kafolatlanganligini bildiradi.

Biroq, amaldagi qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "Internet jahon axborot tarmog'i", "Internet tarmog'i", "Butunjahon Internet tarmog'i" kabi turli terminlar bir xil huquqiy munosabatlarni ifodalash uchun ishlatilmoqda. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida noaniqliklar va talqin qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ta'kidlash o'rinliki, Internet tarmog'iga oid terminologiyani chuqur o'rganish avvalo mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Shu bilan birga, ushbu terminlarning mazmunini to'liq anglash, ularning turli qonunchilik hujjatlarida qo'llanilish asoslari hamda unifikatsiya shartlarini to'g'ri belgilashda turli tushuncha, kategoriyalar bilan o'zaro nisbati va aloqadorligi, umumiy hamda o'ziga xos xususiyatlari, Internet tarmog'i terminologiyasiga oid ilmiy-nazariy konsepsiya hamda yondashuvlarning ham o'ziga xos o'rni bor.

Aytib o'tish joizki, Internet tarmog'iga oid terminologiyani chuqur o'rganish avvalo mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Shu bilan birga, ushbu terminlarning mazmunini to'liq anglash, ularning turli qonunchilik hujjatlarida qo'llanilish asoslari hamda unifikatsiya shartlarini to'g'ri belgilashda turli tushuncha, kategoriyalar bilan o'zaro nisbati va aloqadorligi, umumiy hamda o'ziga xos xususiyatlari, Internet tarmog'i terminologiyasiga oid ilmiy-nazariy konsepsiya hamda yondashuvlarning ham o'ziga xos o'rni bor.

"Internet" so'zi inglizcha "Interconnected Networks" (o'zaro bog'langan tarmoqlar) iborasining qisqartmasi bo'lib, butun dunyo bo'ylab tarqalgan kompyuter tarmoqlarining global tizimini anglatadi [2]. Ushbu atama 1960-yillarning oxirida AQShda harbiy maqsadlarda yaratilgan ARPANET tarmog'idan kelib chiqqan va keyinchalik fuqarolik maqsadlarda keng qo'llanila boshlagan [3].

Izohli lug'atda Internet "Umum jahon kompyuter tarmog'i; butun jahon bo'yicha tarqalgan va telefon hamda optik-tolali liniyalar, modemlar va boshqalar bilan o'zaro bog'langan, har qanday axborotni o'zaro almasha oladigan katta miqdordagi kompyuterlar majmui" deb ta'riflangan [4].

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunida Internet tarmog'iga oid ta'rif keltirilgan bo'lsa-da [5], qonun chiqaruvchi ushbu normada terminologik unifikatsiyaga yetarlicha e'tibor bermaganligi kuzatiladi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda va chet el qonunchiligida ushbu tushuncha quyidagicha ifodalanadi:

Ingliz tilida: "Internet", "World Wide Web", "Global Network";

Rus tilida: "Интернет", "Сеть Интернет", "Всемирная сеть".

O'zbek tilida esa quyidagi variantlar qo'llanilmoqda:

1. "Internet jahon axborot tarmog'i";
2. "Internet tarmog'i";
3. "Butunjahon Internet tarmog'i";
4. "Umumjahon kompyuter tarmog'i".

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining turli sohalardagi normativ-huquqiy hujjatlarini tahlil qilish quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi "Internet jahon axborot tarmog'i" terminidan foydalanadi [6]. Ushbu konstitutsiyaviy norma davlatning raqamli huquqlarni ta'minlash majburiyatini belgilaydi va qonunchilik tizimida terminologik unifikatsiyaning asosi hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida 17 ta o'rinda "Internet jahon axborot tarmog'i" jumlasini qo'llanilgan. Xususan quyidagi jinoyatlar tarkibida:

130-modda. Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish;

130¹-modda. Tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash;

139-modda. Tuhmat;

140-modda. Haqorat qilish;

141²-modda. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish;

141³-modda. Shaxsning sha'nini va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni oshkor qilish;

149¹-modda. Mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni buzish;

188¹-modda. Pul mablag'larini va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat;

244-modda. Ommaviy tartibsizliklar;

244¹-modda. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash;

244⁶-modda. Yolg'on axborot tarqatish;

251¹-modda. Giyohvandlik vositalari targ'ibiga oid mahsulot tayyorlash;

273-modda. Giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda tayyorlash;

274-modda. Giyohvandlik vositalarini targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash;

278-modda. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish.

Bundan tashqari, quyidagi moddalarda Internet butunjahon axborot tarmog'i termini qo'llanilgan:

103-modda. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish;

103¹-modda. O'zini o'zi o'ldirishga undash;

158-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish;

244⁵-modda. Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish [7].

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida 11 ta o'rinda "Internet jahon axborot tarmog'i" jumlasini qo'llanilgan. Xususan:

46²-modda. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish;

56²-modda. Giyohvandlik vositalari hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni targ'ib qilish;

56⁴-modda. Giyohvandlik vositalarini targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash;

188²-modda. Voyaga yetmagan shaxsning ko'ngil ochish joylarida tungi vaqtda bo'lishiga yo'l qo'yish;

189-modda. Pornografik mahsulotni tayyorlash;

189¹-modda. Tazyiqni, zo'raonlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash;

191-modda. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar;

195²-modda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining fototasvirini obro'sizlantirishga olib keladigan tarzda tarqatish;

201¹-modda. Qonunchilik hujjatlarini bajarmaslikka yoki buzishga omma oldida da'vat qilish;

202²-modda. Yolg'on axborot tarqatish [8].

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida "Internet jahon axborot tarmog'i" 4 marotaba keltirib o'tilgan. Xususan:

140-modda. Narsalarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni ko'zdan kechirish;

175-modda. Tekshirish obyektlari;

204²-modda. Raqamli dalillar;

205-modda. Ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni olish usullari [9].

O'zbekiston Respublikasida qonunchilik tizimi faqat asosiy qonunlar bilan cheklanmay, balki huquqiy tartibotni to'ldirib boruvchi turli xil normativ-huquqiy hujjatlarni ham o'z ichiga oladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qarorlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, vazirlik yo'riqnomalari va buyruqlari mazkur hujjatlar sirasiga kiradi. Ushbu normativ aktlar qonunlarning amalda to'g'ri va samarali bajarilishini ta'minlash, shu bilan birga jamiyatning turli sohalarida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajaradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur hujjatlarda terminologik izchillik har doim ham ta'minlanmaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 4-fevraldagi SQ-479-IV-son qarorida "Internet jahon axborot tarmog'i" atamasi 16 marotaba qo'llanilgan bo'lsa, xuddi shu hujjatda "Internet tarmog'i" termini 3 marotaba ishlatilgan [10], bu esa terminologik bir xillikka erishilmaganligini yaqqol namoyon etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-avgustdagi 625-son qarorida "Internet jahon axborot tarmog'i" tushunchasi 14 marotaba qayd etib o'tilgan [11].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentyabrdagi 707-son qarorida "Internet jahon axborot tarmog'i" termini 29 marotaba keltirib o'tilgan bo'lsa-da, qarorning nomi va mazmunida 6 marotaba "Butunjahon Internet tarmog'i" terminologiyasidan foydalanilgan va "Internet tarmog'i" terminologiyasi 32 marotaba qo'llanilganligini kuzatishimiz mumkin [12].

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunida 9 marotaba "Internet jahon axborot tarmog'i" termini qo'llanilgan [13].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son Farmonida (2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha Milliy strategiya) 9 marotaba "Internet jahon axborot tarmog'i" terminini qo'llagan [14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ("2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida") 4 marotaba "Internet jahon axborot tarmog'i" va 3 marotaba "Internet tarmog'i" terminlarini ishlatgan [15].

Shu bois, Internet jahon axborot tarmog'ining yuridik tabiati va mazmunini tahlil qilishda bu borada ilgari amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari hamda mutaxassislarining fikrlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

V.A.Kopylov “Internet – bu global kompyuter tarmog‘i bo‘lib, u o‘zaro bog‘langan mintaqaviy va lokal tarmoqlardan iborat. Huquqiy jihatdan u xalqaro axborot muhitini tashkil etadi va maxsus tartibga solinishni talab qiladi” deb ta‘riflaydi [16].

Nemis huquqshunosi T.Hoeren “Internet tushunchasi texnik va huquqiy jihatdan farqlanadi. Texnik jihatdan bu protokollar to‘plami, huquqiy jihatdan esa ko‘p qirrali huquqiy munosabatlar obyektidir” deb ta‘kidlaydi [17].

Amerika huquqshunosi L.Lessig “Internet – bu arxitektura bo‘lib, u o‘z ichiga texnologik, ijtimoiy va huquqiy qatlamlarni oladi. Huquqiy tartibga solish ushbu qatlamlarning barchasini hisobga olishi kerak” deb qayd etadi [18].

Sh.Z.Saidov: “Internet tarmog‘i zamonaviy jamiyatda aloqa vositasidan ko‘proq yangi ijtimoiy muhitga aylangan. Shu sababli uning huquqiy tavsifi ham keng qamrovli bo‘lishi kerak” deb ta‘kidlaydi [19].

X.X.Botirov terminologik unifikatsiyani qonunchilikda izchillikning asosiy sharti sifatida ta‘riflaydi va “bir xil huquqiy munosabatlar uchun turli terminlar ishlatilishi huquqni qo‘llashda noaniqliklar yaratadi” deb qayd etadi [20].

Z.M.Islomov: “Qonunchilik terminologiyasi aniq, izchil va ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Terminlarning turlicha talqin qilinishi huquq-tartibot idoralarining faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi” deb belgilaydi [21].

Yuqorida keltirilgan statistik ma‘lumotlar va mutaxassislarining fikrlarini tahlil qilish quyidagi muammolarni aniqlashga imkon beradi:

Birinchidan, bir xil qonunchilik hujjatida turli terminlarning qo‘llanilishi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentyabrdagi 707-son qarorida bir vaqtning o‘zida “Internet jahon axborot tarmog‘i” (29 marta), “Butunjahon Internet tarmog‘i” (6 marta) va “Internet tarmog‘i” (32 marta) terminlari ishlatilgan.

Fikrimizcha, L.Lessig, V.A.Kopylov va Sh.Z.Saidovlarning terminologik aniqlikka bergan ta‘kidlariga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, ushbu holatlar qonunchilik texnikasi talablariga zid bo‘lib, birxillashtirilishi zarur.

Ikkinchidan, terminologik nomuvofiqlik iyerarxiya jihatdan turli darajadagi qonunchilik hujjatlari o‘rtasida ham mavjud. Konstitutsiya “Internet jahon axborot tarmog‘i” terminini qo‘llasa, quyi darajadagi normativ hujjatlarda bu prinsip saqlanmaydi.

Shu bilan birga, T.Hoeren va X.X.Botirovning ham bu borada “terminologik iyerarxiya” to‘g‘risidagi fikrlariga qo‘shilish kerak. Chunki Konstitutsiyada qo‘llanilgan termin barcha pastki darajadagi normativ hujjatlarda bir xilda ishlatilishi lozim.

Uchinchidan, qonunchilik hujjatlarida Internet tarmog‘ining huquqiy ta‘rifining yetishmasligi. Hozirgi vaqtda faqat izohli lug‘atda texnik ta‘rif mavjud, huquqiy ta‘rif esa yo‘q.

Fikrimizcha, Z.M.Islomov va V.A.Kopylovlarning bu boradagi fikrlari asoslangan bo‘lib, qonunchilikda aniq huquqiy ta‘rif bo‘lishi zarur.

To‘rtinchidan, terminlarning tarjima muammolari. Ingliz tilidagi “Internet” terminining o‘zbek tiliga turli yo‘llar bilan tarjima qilinishi – “Internet tarmog‘i”, “Internet jahon axborot tarmog‘i” va hokazo ham muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Terminologik unifikatsiya deganda qonunchilik tizimida bir xil tushunchalar uchun yagona, izchil terminologiyadan foydalanish tushuniladi. Bunda amaldagi qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan terminlarning huquqiy tavsifga ega bo‘lganligi, aniq va to‘liq ifodalanganligi muhim.

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, terminologik unifikatsiyaning yetishmasligi quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda:

1) Huquqni qo'llash amaliyotida noaniqliklar. Turli terminlarning mavjudligi sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari faoliyatida bir xil normalarni turlicha talqin qilish xavfini tug'dirmoqda. Masalan, jinoyat ishini ko'rayotgan sud "Internet jahon axborot tarmog'i" iborasini qanday tushunishi kerak – faqat WWW protokolini yoki barcha Internet xizmatlarini (e-mail, FTP va boshqalar)ni ham qamrab olishini aniq emas.

2) Qonunchilik hujjatlarini qo'llashdagi qiyinchiliklar. Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat organlari xodimlari qonunchilik talablarini to'g'ri tushunishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, Internet orqali sodir etilgan huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni ko'rishda bu muammo yaqqol ko'rinmoqda.

3) Xalqaro hamkorlikdagi muammolar. O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy hamkorligi doirasida Internet tarmog'idagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda terminologik farqlar to'sqinlik qilishi mumkin. Xususan, ekstraditsiya, huquqiy yordam ko'rsatish va boshqa xalqaro-huquqiy jarayonlarda terminlarning noto'g'ri tarjimai yoki noaniq talqini muammolar tug'dirishi mumkin.

4) Qonunchilik texnikasi sifatining pasayishi. Terminologik unifikatsiyaning yo'qligi qonunchilik hujjatlarining umumiy sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va davlatning huquqiy madaniyat darajasini pasaytiradi.

Rossiya Federatsiyasida "Интернет" termini qonunchilikda keng qo'llaniladi. 2019-yilda qabul qilingan "Rossiya Federatsiyasi hududida Internet tarmog'ida barqaror ishlashni ta'minlash to'g'risida"gi federal qonunda "сеть Интернет" atama yagona shaklda qo'llangan [22].

Rossiyalik huquqshunos I.L.Bachilo ta'kidlashicha, "terminologik unifikatsiya jarayoni 2000-yillarning boshida boshlangan va 2010-yillarda asosiy natijalarga erishgan. Buning natijasida Rossiya qonunchiligida "сеть Интернет" yoki "Интернет" atamalari yagona shaklda qo'llanilib kelinmoqda [23].

Ozqog'iston Respublikasida "Интернет" va "интернет желісі" terminlari qo'llaniladi. 2023-yilda qabul qilingan yangi qonunlar to'plamida terminologik unifikatsiyaga katta e'tibor qaratilgan [24].

Ozqog'istonlik huquqshunos A.S.Nurmagambetova: "Biz Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida terminologik unifikatsiyani amalga oshirdik. Bu xalqaro hamkorlikni osonlashtirdi va qonunchilik sifatini oshirdi" deb qayd etadi [25].

Yuqorida keltirilgan tahlillar, xorijiy tajriba va milliy qonunchilik xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi takliflarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

"Internet jahon axborot tarmog'i" iborasini qonunchilikda yagona atama sifatida qabul qilish.

Konstitutsiyada qo'llanilgan "Internet jahon axborot tarmog'i" terminini butun qonunchilik tizimida yagona va asosiy termin sifatida qo'llash lozim. Buning uchun:

"Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunga quyidagi ta'rifni kiritish taklif etiladi:

"Internet jahon axborot tarmog'i – standartlashtirilgan protokollar (TCP/IP) asosida o'zaro bog'langan kompyuter tarmoqlarining global tizimi bo'lib, u axborot resurslari va

xizmatlarini taqdim etish, ma'lumotlar almashish hamda elektron aloqani ta'minlash uchun mo'ljallangan."

Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat-protsessual kodeks va boshqa kodekslardagi barcha normalarda "Internet tarmog'i", "Butunjahon Internet tarmog'i" va boshqa variantlarni "Internet jahon axborot tarmog'i" bilan almashtirish.

Qonunchilik texnikasi nuqtayi nazaridan, birinchi marta ishlatilganda to'liq shakli ("Internet jahon axborot tarmog'i") ko'rsatilgandan so'ng, keyingi hollarda qisqartirilgan shakl ("Internet tarmog'i") ishlatilishiga ruxsat berish mumkin, biroq bu bir xil normativ hujjat doirasida izchil qo'llanilishi kerak.

Adliya vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan qonunchilikda qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar sohasidagi terminlarning rasmiy lug'atini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur.

Qonun loyihalarini tayyorlashda Internet va raqamli texnologiyalarga oid terminlardan to'g'ri foydalanish bo'yicha metodologik ko'rsatmalar ishlab chiqish kerak.

Yangi qabul qilinadigan qonunchilik hujjatlarida terminologik unifikatsiyaga rioya qilinishini ta'minlash uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi apparatida maxsus monitoring mexanizmini joriy etish zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida va malaka oshirish kurslarida Internet huquqi, raqamli texnologiyalar huquqi va qonunchilik texnikasi bo'yicha maxsus dasturlar joriy etish orqali mutaxassislar tayyorlash kerak.

Yuqoridagi tahlil, tadqiqot va xulosalarni umumlashtirgan holda aytish joizki, **"Internet jahon axborot tarmog'i" terminining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida unifikatsiyalangan qo'llanilishi** – bu nafaqat qonunchilik texnikasining sifatini oshirish, balki raqamli jamiyatning huquqiy asoslarini mustahkamlash, fuqarolarning raqamli huquqlarini himoya qilish va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023.
2. Leiner B.M., Cerf V.G., Clark D.D., et al. Brief History of the Internet // Internet Society. – 1997. – P. 2.
3. Abbate J. Inventing the Internet. – Cambridge: MIT Press, 1999. – P. 36-45.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. / Bosh muharrir: A.Madvaliyev. – 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 458.
5. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. 2003-yil 11-dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023. – 33-modda.
7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: "Adolat", 2025.
8. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T.: "Adolat", 2024.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: "Adolat", 2024.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 4-fevraldagi "Internet jahon axborot tarmog'ida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya qilish

masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish haqida"gi SQ-479-IV-son qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-avgustdagi "Telekommunikatsiya tarmoqlari va axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish to'g'risida"gi 625-son qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Internet resurslarini ro'yxatdan o'tkazish, ularning faoliyatini monitoring qilish va nazorat qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 707-son qarori.

13. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. 2003-yil 11-dekabr.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi "2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6255-son Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

16. Копылов В.А. Информационное право. – М.: "Юристъ", 2002. – С. 234.

17. Hoeren T. Internetrecht. – München: C.H. Beck, 2021. – S. 15.

18. Lessig L. Code and Other Laws of Cyberspace. – New York: Basic Books, 1999. – P. 24.

19. Saidov Sh.Z. Axborot huquqi asoslari. – T.: "Adolat", 2019. – B. 78.

20. Botirov X.X. Qonunchilik texnikasi asoslari. – T.: "TDYU", 2018. – B. 156.

21. Islomov Z.M. Huquqiy terminologiya: nazariya va amaliyot. – T.: "Fan", 2020. – B. 89.

22. Федеральный закон Российской Федерации от 01.05.2019 № 90-ФЗ "О внесении изменений в Федеральный закон "О связи" и Федеральный закон "Об информации, информационных технологиях и о защите информации".

23. Бачило И.Л. Информационное право России. – М.: "Юрайт", 2016. – С. 89.

24. Қазақстан Республикасының "Ақпараттандыру туралы" заңы. 2023 жыл 24 қараша.

25. Нурмагамбетова А.С. Правовое регулирование Интернета в странах ЕАЭС. – Астана, 2023. – С. 67.